



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA O'YIN FAOLIYATINING TURLARI

Azamatova D.Sh.

CHDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: o'yin, faoliyat, maktabgacha yosh, ta'limiy o'yinlar, qoidalar, yetakchi faoliyat.

Ключевые слова: игра, деятельность, дошкольный возраст, развивающие игры, правила, ведущая деятельность.

Key words: game, activity, preschool age, educational games, rules, leading activity.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni eng asosiy va etakchi faoliyatlaridan biri o'yindir. Yetakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko'zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz. Etakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik protsesslari anchagina o'sadi. O'yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o'yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

Bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyati rus psixologlaridan L.S. Vigotskiy, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leontev, E.A.Arkin, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida ilmiy asosda yoritib berilgan. Rus psixologlari o'z asarlarida burjua psixologlarining o'yin nazariyalarini qattik tanqid ostiga olishlari bilan birga bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyatini materialistik asosda ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib berganlar. Bu jihatdan, xususan, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leontev, E.A.Arkinlarning asoslari diqqatga sazovordir.

O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham o'yin bolalarning kun tartibiga aylangan. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining eng muhim vositasi hisoblanadi. Oyin jarayonida bola shaxsi



sub'ektiv sifatida shakllana boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining turlari juda ko'p. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati. Ta'limiy o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Ta'limiy o'yinlarning eng muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin maqsadi, o'yin harakatlari, o'yin qoidalari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq madaniyati, aqliy qobiliyatlari shakllana boradi. Bolalarning kun tartibida doimo ta'limiy o'yinlar uchun vaqt ajratish kerak. Chunki bunday o'yinlar bolalarning aqliy nafaqat jismoniy rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ta'limiy o'yinlarda bir nechta qoidalarga amal qilish kerak bo'ladi.

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlarini fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Ta'limiy o'yinlarda asosan bolalarning yosh xususiyatini hisobga olish kerak. Chunki yoshini hisobga olmasak bolalar o'yin davomida qiynchiliklarga uchrashi mumkin. Bu o'yin bolalarning tevarak atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini tavsiflash o'stirish imkonini beruvchi o'yindir. Bundan tashqari didaktik o'yinlarning bir nechta turlari ham bor. Bular:

1. Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar;
2. Stol-bosma;
3. Og'zaki so'z o'yinlari.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yinning asosini tashkil qiladi. Bu o'yin orqali bolalarda tevarak-atrofdagi narsalarning sifati, foydali ekanligi haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini o'stirish imkonini beruvchi o'yin turi hisoblanadi. Bunday o'yinlar orqali bolalar tevarak-atrofdan olgan taassurotlari orqali fikr yuritadilar va olgan taassurotlarini tahlil qilib, umumlashtira oladilar. Bu o'yin turiga a) loto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi. Bu o'yinlar



bolalarning eshita olishiga hamda tez javob bera olishiga yordam beradigan o'yinlardan biri hisoblanadi.

Og'zaki so'z o'yinlari asosan katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin turi hisoblanadi. Bu o'yinlar asosan bolalarning eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishiga yordam beradigan o'yin turlaridan hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bunday o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega o'yinlar hisoblanadi. Bundan tashqari qoidali-harakatli o'yinlar ham bor. Bu o'yinning ahamiyati bolalarni jismoniy tomondan rivojlanishiga yordam beradigan o'yin hisoblanadi. Bu o'yinlar asosan yurish, sakrash, yugurish, chirmashib chiqish, emakalsh kabi harakatlar o'yinning asosini tashkil qiladi. O'z navbatida qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra:

1. xalq milliy o'yinlari;
2. mualliflik o'yin turlariga bo'linadi.

Bu o'yinlarda ham asosiy narsa o'yin qoidalari hisoblanadi. O'yin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ular yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqloq ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik hissini uyg'otishda va o'z yurtining qadryatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlarining o'rnini beqiyosdir. Masalan bolalar uchun "Barmoqqa-barmoq", "G'oz-g'oz", "Tot-toy", "Poyezd", "To'pni quvla", "To'pni ushab ol" kabi o'yinlar o'ynatsak ham bo'ladi. Katta yoshdagi bolalar uchun o'yinlar murakkablasha boradi. Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o'z Vatanini sevish, uning boyliklarini asrab-avaylash, buyuk ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy xalq o'yinlari orqali chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik kabi shaxsiy sifatlar shakllana boradi. O'yinlar bolalarning eng sevimli mashg'uloti bo'lganligi sababli o'yinlarni doimo o'zgartirib, qiziqarli tashkil qilish kerak bo'ladi. Chunki o'yin doimo o'zgarib turganligi sababli bolalar charchab qolmaydi va zerikmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalarni shaxs sifatida shakllanishida hamda ularni kamolotga yetkazishda o'yinning ahamiyati katta.

Ijodiy o'yinlar asosan bolalar tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettirib beradi. Bunday o'yinlar asosan mustaqil o'yin hisoblanadi. Bu o'yining mazmunini ishtirokchilarning o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolaning mustaqilligi, erkinligi, va tshkilotchiligi namoyon bo'ladi.

Ijodiy o'yinlar ham o'z navbatida bir necha xil bo'ladi.

- syujetli-rolli o'yinlar;
- sahnalashtirilgan o'yinlar;



– qurish va yasashga doir o'yinlardir;

Bolalar uchun bunday o'yinlar tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shakli hisoblanadi. Syujetli rolli o'yinlar asosan bolalarning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini kengaytirishga yordam beradi. Bunday o'yinlarda bolalar turli vositalardan foydalanadilar. O'yin davomida bolalar ayrim narsalarni o'zlari hohlagancha nomlab faraz qilishadi. Bunday o'yinlar bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga aqliy salohiyatini kengaytirishga hamda tengdoshlari orasida erkin fikrlay olishga yordam beradi. Bolalar o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollari juda samimiy va betakor bo'ladi. Bolalar uchun bunday o'yinlarning chegarsa yo'q. Hatto ular o'yinlari orqali kattalar hayotini aks ettira oladilar.

Xulosa qilib aytganda o'yin bolani har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi va o'yin orqali bola o'zidagi barcha sifatlarni shakllantiradi. O'yin nafaqat bolalarning bilish jarayonini rivojlantirishdan tashqari bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga bolani maktab ta'limiga ham tayyorlab boradi. Bunday o'yinlar asosan bolalarni diqqat, xotira, nutq, tafakkur va ongini rivojlantirishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk qadam davlat o'quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022.
2. Xasanboyeva O., Tadjiyeva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo, 2012
3. Xasanboyeva O. U. va boshq. Maktabgacha pedagogikasi T.: Ilm ziyo. 2006
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T., "Tafakkur bo'stoni", 1992.
5. "Maktabgacha Pedagogika" F.R. Qodirova, Toshkent 2003

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini tashkil qilishda o'yin faoliyatining ahamiyati, o'yin faoliyatining turlari va o'yinlarni tashkil qilish qoidalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описано значение игровой деятельности, виды игровой деятельности и правила организации игр в организации деятельности детей дошкольного возраста.

SUMMARY

This article describes the importance of play activities, types of play activities and the rules of organizing games in the organization of preschool children's activities.